O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZOLIK ARAFASIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH YO‘NALISHLARIDA QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Alisher Dodoyev

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi mas’ul xodimi,

Tel.: +998 90 968 85 22.

E-mail: alisherdodoev@mail.ru

Elyor Tangirkulov

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Milliy metrologiya instituti mas’ul xodimi.

Tel.: +998 94 609 62 61

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zolik jarayoni sharoitida metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash sohalaridagi qonunchilikni takomillashtirish zarurati ilmiy-tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Texnik jihatdan tartibga solish tizimida standartlarning ixtiyoriyligi, texnik reglamentlarning majburiyligi, o‘lchashlar izchilligi va muvofiqlikni baholash natijalarining xalqaro tan olinishi tamoyillari huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozimligi asoslab beriladi. Shuningdek, institutsional vakolatlarni optimallashtirish, shaffoflikni kuchaytirish va byurokratik bosqichlarni qisqartirish orqali savdodagi texnik to‘siqlarni kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va ichki bozorda sifat madaniyatini shakllantirishda mazkur islohotlarning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. metrologiya, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, texnik reglament, standart, akkreditatsiya, xalqaro tan olinishi, texnik to‘siqlar, JST.

Аннотация. В статье на основе научно-аналитического подхода раскрывается необходимость совершенствования законодательства Узбекистана в сферах метрологии, стандартизatsii и оценки соответствия в условиях подготовки к вступлению во Всемирную торговую организatsiю. Обосновывается правовое закрепление принципов добровольности стандартов, обязательности технических регламентов, прослеживаемости измерений и международного признания результатов оценки соответствия. Анализируются возможности сокращения технических барьеров в торговле посредством оптимизatsii институциональных полномочий, повышения прозрачности и снижения бюрократических процедур. Результаты

ISSN 3030-3907

исследования демонстрируют стратегическое значение данных реформ для повышения конкурентоспособности natsionalьной продукции и формирования культуры качества на внутреннем рынке.

Ключевые слова. метрология, стандартизatsiя, оценка соответствия, технический регламент, стандарт, аккредитatsiя, международное признание, технические барьеры, ВТО.

Abstract. This article provides a scientific and analytical examination of the need to improve Uzbekistan's legislation in the fields of metrology, standardization, and conformity assessment in the context of its accession to the World Trade Organization. It substantiates the legal consolidation of the principles of voluntary standards, mandatory technical regulations, measurement traceability, and international recognition of conformity assessment results. The study analyzes opportunities to reduce technical barriers to trade through the optimization of institutional mandates, enhanced transparency, and reduced bureaucratic procedures. The findings highlight the strategic importance of these reforms for increasing the competitiveness of national products and fostering a culture of quality in the domestic market.

Keywords. metrology, standardization, conformity assessment, technical regulation, standard, accreditation, international recognition, technical barriers, WTO.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda milliy bozorlar ochiqligi, mahsulot va xizmatlar sifatining xalqaro mezonlar asosida kafolatlanishi hamda texnik to‘siqlarning kamaytirilishi davlatlar raqobatbardoshligini belgilaydigan hal qiluvchi omilga aylandi. Mazkur jarayonda metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash tizimlari iqtisodiy rivojlanish, savdo munosabatlari va iste’molchi manfaatlarini himoya qilishning institutsional poydevori sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu sohalardagi huquqiy me’yorlar, tashkiliy mexanizmlar va amaliy instrumentlar qanchalik mukammal bo‘lsa, milliy mahsulotlar xalqaro bozorda shunchalik ishonchli va raqobatbardosh bo‘ladi.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga [1] a’zolik jarayoni nafaqat tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, balki texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qonunchilikni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirishni ham talab qiladi. Bu esa metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash tizimlarini xalqaro qoidalarga moslashtirish, shaffoflikni ta’minlash, diskriminatsion amaliyotlarni bartaraf etish va texnik to‘siqlarni qisqartirish kabi yo‘nalishlarda chuqur institutsional islohotlarni taqozo etadi.

ISSN 3030-3907

Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni har qanday davlat uchun faqat tashqi savdo liberallashuvi emas, balki milliy huquqiy, institutsional va texnik infratuzilmani tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan murakkab islohotlar jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda eng katta o‘zgarishlar bevosita texnik jihatdan tartibga solish tizimiga tegishli bo‘ladi. Chunki JST doirasida savdodagi asosiy muammolar bojxona bojlari yoki tariflar emas, balki texnik to‘siqlar, ya’ni standartlar, texnik reglamentlar, sertifikatlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tartiblari orqali namoyon bo‘ladi.

GATT qoidalarida savdo erkinligini ta’minlashning umumiy tamoyillari belgilangan bo‘lsa, keyingi kelishuvlar, xususan, texnik to‘siqlar bilan bog‘liq qoidalar milliy texnik infratuzilmaning xalqaro talablarga muvofiqligini talab qiladi [2]. JST a’zolari o‘rtasidagi savdo munosabatlarida mahsulot sifati, xavfsizligi va muvofiqligini baholashda qo‘llaniladigan usullar o‘zaro tan olinishi lozim. Bu esa bevosita milliy texnik jihatdan tartibga solish tizimining xalqaro standartlashtirish, metrologiya va akkreditatsiya tizimlari bilan uyg‘unlashganligini taqozo etadi [3].

Mazkur maqolada O‘zbekistonda metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash sohalaridagi qonunchilikni takomillashtirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar Jahon savdo tashkilotiga a’zolik jarayoni nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil xalqaro qoidalar, milliy huquqiy baza, institutsional amaliyot va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga qaratilgan.

USULLAR

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, institutsional tahlil va normativ hujjatlarni mazmunan o‘rganish usullari qo‘llanildi. Metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash sohalaridagi milliy qonunchilik xalqaro qoidalar bilan qiyoslanib o‘rganildi. Jahon savdo tashkilotining texnik to‘siqlar va sanitar-fitosanitar choralariga oid kelishuvlari mazmun jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, amaldagi institutsional tuzilmalar faoliyati va ularning huquqiy asoslari tadqiq etildi. Tahlil jarayonida huquqiy normalarning iqtisodiy va amaliy natijalariga alohida e’tibor qaratildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Jahon savdo tashkiloti talablari metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash sohalaridagi qonunchilikni mazmunan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu talablar formal o‘zgarishlar emas, balki huquqiy me’yorlarning iqtisodiy mazmunga ega bo‘lishi, bozor mexanizmlari bilan uyg‘un ishlashi va xalqaro amaliyot bilan muvofiqlashgan bo‘lishini nazarda tutadi.

ISSN 3030-3907

Avvalo, texnik reglamentlar va standartlar o‘rtasidagi aniq huquqiy chegarani belgilash zarurati yaqqol namoyon bo‘ladi. Standartlar ilg‘or amaliyotni aks ettiruvchi, ixtiyoriy qo‘llaniladigan hujjat sifatida mustahkamlanishi, majburiy talablar esa faqat texnik reglamentlarda ifodalanishi lozim. Bu yondashuv bozor ishtirokchilariga aniqlik beradi, huquqiy noaniqliklarni bartaraf etadi va tadbirkorlik faoliyatida ortiqcha cheklovlarni kamaytiradi. Shu orqali texnik talablar shaffof, tushunarli va barqaror huquqiy asosga ega bo‘ladi.

Muvofiqlikni baholash tizimida xalqaro tan olinish tamoyilini joriy etish qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sinov laboratoriyalari, sertifikatlashtirish organlari va akkreditatsiya tizimining xalqaro talablar bilan uyg‘unligi ta’minlansa, ularning bergan natijalari xorijiy bozorlarda ham qabul qilinadi. Bu esa eksport qiluvchi korxonalar uchun takroriy sinov va sertifikatlashtirish jarayonlarini qisqartiradi, vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi, savdo jarayonlarini soddalashtiradi.

Metrologiya sohasida esa o‘lchashlarning xalqaro birliklar tizimiga to‘liq mosligi, etalonlar zanjirining mustahkamligi va qiyoslash tizimining ishonchliligi asosiy natija sifatida ko‘zga tashlanadi. O‘lchash natijalari xalqaro darajada tan olinishi mahsulot sifati va xavfsizligiga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Bu nafaqat sanoat ishlab chiqarishida, balki savdo va iste’mol sohasida ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Qonunchilikda shaffoflik va ochiqlik tamoyilini kuchaytirish ham muhim natija sifatida namoyon bo‘ladi. Texnik hujjatlarni jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish, tadbirkorlik sub’ektlari va ekspertlar fikrini inobatga olish, xalqaro tashkilotlarga o‘z vaqtida axborot taqdim etish mexanizmlarining huquqiy mustahkamlanishi Jahon savdo tashkiloti talablariga to‘liq javob beradi. Bu jarayonlar huquqiy ishonch va institutsional shaffoflikni ta’minlaydi.

Shuningdek, milliy institutlarning vakolat va funksiyalarini aniq belgilash orqali tizim samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Funksional takrorlanishlarni bartaraf etish, mas’uliyatni aniq taqsimlash va idoralararo hamkorlikni mustahkamlash metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash tizimlarining uyg‘un faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Bu esa umumiy holda texnik jihatdan tartibga solish tizimining barqarorligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar qonunchilikni takomillashtirish jarayoni xalqaro talablarni bajarish bilan cheklanib qolmasdan, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan kompleks islohotlar majmuasi ekanini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

ISSN 3030-3907

Jahon savdo tashkiloti (JST) davlatlar o‘rtasidagi savdoni tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi. JSTga a’zo mamlakatlar soni 166 tani tashkil etadi va dunyo bo‘ylab savdoning 95 foizi ularning hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda JSTga a’zo bo‘lish yo‘lida qanday ishlar amalga oshirilmoqda degan savolga JST tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk obyektlari xalqaro savdosi sohasida “kamsitmaslik” tamoyili ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan tashkilot hisoblanadi. Ushbu tamoyil asosida a’zo davlatlar tomonidan o‘z savdo hamkorlari, shuningdek, xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchilar orasida kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi ta’minlanishini qayd etish lozim [4].

Natijada JSTga a’zo har bir davlat xalqaro savdoning teng huquqli subyekti sifatida boshqa a’zolar bilan bir xil imkoniyatlar asosida tashqi iqtisodiy va savdo munosabatlarini olib boradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda JSTga a’zolik bo‘yicha ishlar jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Xususan, a’zo davlatlar bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Ta’kidlash lozimki, milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg‘unlashtirish ushbu tashkilotga a’zo bo‘lishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning qaroriga asosan Adliya vazirligiga milliy qonunchilikning JST bitimlariga uyg‘unligini ta’minlash vazifasi yuklatildi.

– Adliya vazirligi tomonidan nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari ekspertizadan o‘tkazilmoqda, balki vazirlik tashabbusi bilan amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Shu munosabat bilan “Milliy rejim”, ya’ni mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida kamsitmaslikni ta’minlash hamda milliy intellektual mulk tizimini xalqaro talablarga moslashtirish maqsadida 2024-yil 15-fevralda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi.

Mazkur qonun bevosita milliy qonunchilikni JST bitimlariga muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan va intellektual mulk, reklama, dori vositalari va farmatsevtika faoliyati hamda davlat bojiga oid qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutadi.

Ushbu qonun qabul qilinguniga qadar davlat boji miqdorlari xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun

ISSN 3030-3907

bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 10 baravari miqdorida, mahalliy yuridik shaxslar uchun esa BHMning 1 baravari miqdorida o‘rnatilgan edi.

Qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va mahalliy korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun o‘rnatilgan davlat boji birxillashtirilgan holda BHMning 1 baravari miqdorida belgilanishi bilan tegishli qonunchilik hujjatlari JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh bitimiga muvofiqlashtirildi.

– Qonunchilikdagi bu o‘zgartirishlar qanday natija beradi, degan savolga bu xorijiy investorlar va rezidentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotimizga kiritiladigan investitsiyalar ko‘lami kengayishiga xizmat qilishini aytishimiz mumkin

Bundan tashqari, qonunda milliy intellektual mulk tizimini JSTning Intellektual mulk huquqining savdo bilan bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi bitimi, ya’ni TRIPS bitimi talablariga uyg‘unlashtirish nazarda tutilgan.

O‘zbekistonda texnik jihatdan tartibga solish sohasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar mazmunan xalqaro qoidalarga yaqinlashib borayotgan bo‘lsa-da, ularning amaldagi huquqiy va institutsional ifodasi hali to‘liq tizimlashgan holatga kelmagani kuzatiladi. Ayrim normativ hujjatlarda standartlar amalda majburiy talab sifatida qo‘llanilishi, texnik reglament va standart o‘rtasidagi funksional chegaraning aniq belgilanmagani, muvofiqlikni baholash jarayonlarida ortiqcha bosqichlar mavjudligi, turli organlar o‘rtasida vakolatlar takrorlanishi kabi holatlar bozor ishtirokchilari uchun noaniqlik va qo‘shimcha ma’muriy yuklamalarni keltirib chiqaradi. Bu esa Jahon savdo tashkiloti tomonidan e’tirof etilgan texnik to‘siqlarni kamaytirish tamoyiliga to‘liq mos kelmaydi.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, standartlashtirish tizimi ixtiyoriylik, shaffoflik va manfaatdor tomonlarning keng ishtirokini ta’minlagandagina samarali ishlaydi. Standartlar bozor uchun yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi, lekin ular majburiy me’yor emas, balki eng yaxshi amaliyot ifodasi sifatida qo‘llaniladi. Texnik talablar esa faqat texnik reglamentlarda aks etishi lozim. Bu tamoyil bozorda teng raqobat sharoitini yaratadi va tadbirkorlik faoliyatini ortiqcha cheklovlardan holi etadi.

Metrologiya tizimida xalqaro ishonchni ta’minlashning asosiy sharti o‘lchashlar izchilligi va etalonlar zanjirining mustahkamligidir. Ilmiy asoslangan etalonlar, xalqaro qiyoslashlarda faol ishtirok, o‘lchash natijalarining xalqaro darajada tan olinishi mahsulot sifati va xavfsizligiga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Agar ushbu tizim huquqiy jihatdan to‘liq mustahkamlansa, u nafaqat ichki bozorda, balki tashqi savdoda ham strategik ustunlikka aylanadi.

ISSN 3030-3907

Muvofiqlikni baholash tizimida esa asosiy masala – natijalarning xalqaro tan olinishidir. Akkreditatsiya organlarining mustaqilligi, sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish organlarining xolis faoliyati, o‘zaro tan olish kelishuvlariga integratsiyalashish savdodagi texnik to‘siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa eksportyor korxonalar uchun takroriy sinov va sertifikatlashtirish xarajatlarini bartaraf etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston qonunchiligida standart, texnik reglament va muvofiqlikni baholash tushunchalarining aniq huquqiy chegarasini belgilash, institutsional vakolatlarni optimal taqsimlash va jarayonlarni raqamlashtirish orqali byurokratik bosqichlarni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnik hujjatlarni jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish, tadbirkorlik sub’ektlarining fikrlarini inobatga olish, xalqaro tashkilotlarga axborot berish amaliyotini tizimli yo‘lga qo‘yish shaffoflikni ta’minlaydi.

Ushbu tamoyillarni qonunchilikka to‘liq singdirish milliy mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ichki bozorda sifat madaniyatini shakllantiradi. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta’minlash va sifatli mahsulot aylanmasini kengaytirish aynan metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash tizimlarining huquqiy mukammalligiga bog‘liq. Shu bois, mazkur sohalardagi qonunchilikni takomillashtirish Jahon savdo tashkiloti talablarini bajarish emas, balki milliy iqtisodiyotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning strategik sharti sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

Jahon savdo tashkilotiga a’zolik jarayoni O‘zbekiston uchun metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash sohalaridagi qonunchilikni mazmunan qayta ko‘rib chiqish va uni xalqaro huquqiy-amaliy muhitga moslashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon oddiy normativ yangilanish emas, balki texnik jihatdan tartibga solish tizimini iqtisodiy rivojlanish, savdo erkinligi va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish bilan uzviy bog‘laydigan institutsional islohotlar majmuasidir. Texnik to‘siqlarni kamaytirish, o‘lchashlar va muvofiqlik natijalarining xalqaro tan olinishini ta’minlash, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish va tizim samaradorligini oshirish aynan shu islohotlar orqali amalga oshadi.

Qonunchilikni takomillashtirishda xalqaro tamoyillar, milliy manfaatlar va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xalqaro talablarni to‘liq qabul qilish bilan birga, ularni milliy iqtisodiyot xususiyatlari, sanoat salohiyati va ichki bozor ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Bu yondashuv qonunchilikni formal moslashtirishdan ko‘ra, uning amaliy samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Metrologiya, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar faqat Jahon savdo tashkiloti talablarini bajarish maqsadida emas, balki milliy mahsulotlar sifati va xavfsizligini yangi bosqichga olib chiqish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va iste'molchilar huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan strategik qadam sifatida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, texnik jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida sifat madaniyatini shakllantirish, xalqaro ishonchni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni ta'minlashning fundamental shartiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. General Agreement on Tariffs and Trade (GATT 1994).
2. http://www.uzbearingpoint.com/files/1/a1.pdf
3. https://lex.uz/docs/6480161?ONDATE=04.06.2024// Milliy strategiya O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha
4. https://adliya.uz/uzb/posts/ozbekistonda-jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolish-y
5. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS).
6. Zakon Respubliki Uzbekistan «O vneshneekonomicheskoy deyatelnosti».
7. Doklady Rabochey gruppy VTO po prisoedineniyu novых chlenov.
8. Analiticheskie obzorы Vsemirnogo banka.
9. Doklady YuNKTAD po mejdunarodnomu torgovomu pravu.
10. Axborot portali: uzbwto.uz.

ISSN 3030-3907